



## AHOLINI DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT BUYUMLARI BILAN TA'MINLASHDA DAVLAT BOSHQARUVINING ROLI

Xudoyberganova Mavjuda Hamroqulovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Ma'muriy va moliya huquqi” kafedrası o'qituvchisi

E-mail: m.xudoyberganova@tsul.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7493919>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> December 2022

Accepted: 29<sup>th</sup> December 2022

Online: 30<sup>th</sup> December 2022

### KEY WORDS

*Dori vositalari, farmatsevtika faoliyati, dorixona muassasalari, ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari, ijtimoiy dorixona, qishloq vrachlik punktlari, farmatsevtika tarmog'i, tibbiy buyum, davlat organlari vakolatlari, modernizatsiya.*

### ABSTRACT

*Maqolada mamlakatimiz aholisi va tibbiyot muassasalarini arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirishni, dorixona muassasalarining farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtirishni va nazorat qilishni ta'minlashda davlatning tegishli davlat organlari, tashkilotlari va korxonalarining faoliyati o'rganib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholini arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilashga doir islohotlar tahlil qilinadi. Bunda "Dori-Darmon" aksionerlik kompaniyasi, Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi, O'zbekiston farmasevtika sanoati ("O'ZFARMSANOAT") davlat-aksionerlik konserni hamda "O'zmedimpeks" davlat unitar korxonalarini huquqiy faoliyati va vazifalari o'rganiladi. Mazkur o'rganishlar orqali mamlakatimizda aholini sifatli dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirishni, dorixona muassasalarining farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtirishni va nazorat qilishni ta'minlashda davlatning tegishli davlat organlari, tashkilotlari va korxonalarining rolini aniq vazifalarga yo'naltirish, ularga yuklatilgan vakolatlarni takrorlanishini oldini olish, shuningdek dori-darmon xaridi bo'yicha yuzaga keladigan korrupsiyaga oid shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy sohaga oid islohotlarning asoslaridan biri sifatida fuqarolarning

sog'lom turmush tarzini yanada takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli



Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlanishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o'sishiga yo'l qo'ymaslik masalalari alohida ko'rsatib o'tilgan[1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-son «Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash bo'yicha Yo'l xaritasi 2-bo'limiga muvofiq dori vositalarini arzon narxlarda xarid qilish va sotish masalalarini nazarda tutadigan Ijtimoiy dorixonalarni ko'paytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilangan[2]. Mamlakatimizda aholini sifatli dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirishni, dorixona muassasalarining farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtirishni va nazorat qilishni ta'minlashda davlatning tegishli davlat organlari, tashkilotlari va korxonalarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Bularga misol sifatida *“Dori-Darmon” aksionerlik kompaniyasi, Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi* hamda *“O'zmedimpeks” davlat unitar korxonalarini* keltirish mumkin. Quyida ularning faoliyatini alohida o'rganib chiqamiz.

**“Dori-Darmon” aksionerlik kompaniyasi** – dinamik ravishda rivojlanib kelayotgan O'zbekiston farmatsevtika bozoridagi yetakchi ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar hisoblanadi. “Dori-darmon” aksionerlik kompaniyasi (keyingi o'rinlarda – “Dori-Darmon” AK)ning asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston Respublikasi aholisini sifatli dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash hamda kompaniya tarkibiga kiradigan dorixona muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, mavjud farmatsevtika mahsulotlari resurslari to'g'risidagi yagona respublika axborotlar tizimini yaratishdir.

“Dori-Darmon” AK o'zining dastlabki faoliyatini Turkiston ASSR davridan boshlagan bo'lib, tashkil etilishidan tortib to hozirgi kunga qadar faoliyatining rivojlanish tarixini quyidagi 3 davrga bo'lishimiz mumkin:

1. Mustaqillikgacha bo'lgan davr (1925-1994-yillar).
2. Mustaqillik davri (1994-2005-yillar)
3. Modernizatsiya davri (2005-yildan to hozirgi kunga qadar).

### **Mustaqillikgacha bo'lgan davr (1925-1994-yillar).**

“Dori-Darmon” AK O'zbekiston Bosh dorixona boshqarmasining huquqiy vorisi hisoblanib, o'zining dastlabki faoliyatini 1925-yildan boshlagan. Mustaqillikgacha bo'lgan davrda mazkur boshqarma O'zbekiston SSR aholisini dori vositalari va tibbiy buyumlari bilan ta'minlagan yagona davlat bosh dorixonasi hisoblangan. Kompaniyaning tashkil topgan paytidan boshlab Respublika “Farmatsevtika” ishlab chiqarish birlashmasi sifatida qayta tashkil qilingunga qadar bo'lgan davr farmatsevtika faoliyatini isloh qilishning dastlabki qadamlaridan biri bo'ldi.



1924-yil 27-oktyabrda O'zbekiston SSR tashkil topgach, aholini dori vositalari va tibbiy buyumlari bilan ta'minlovchi yagona tashkilot sifatida 1925-yil fevralda Sog'liqni saqlash halq komissariati qoshida Dorixona boshqarmasi tashkil qilindi. Boshqarmaning tasarruf doirasi 34 ta xo'jalik hisobidagi dorixonani, markaziy dorixona omborini, nazorat-tahlil laboratoriyasini o'z ichiga oldi. Keyinchalik dorixona tarmog'ining kengaytirilishi tufayli, 1938-yil noyabrda O'zbekiston Dorixona boshqarmasi O'zbekiston Bosh dorixona boshqarmasi sifatida qayta tashkil qilindi.

O'zbekiston qishloq aholisiga dori-darmonli yordamni yanada yaxshilash maqsadida, 1938-yildan qishloq tibbiy uchastkalari qoshida dorixona punktlari tashkil qilina boshlandi va 1940-yil oxiriga kelib, O'zbekiston Bosh dorixona boshqarmasi tizimida 172 ta dorixona, 398 ta dorixona punkti, 20 ta dorixona do'koni, 76 ta dorixona kioskasi, 5 ta dorixona ombori, 6 ta nazorat-tahlil laboratoriyasi va bitta galen-qadoqlash laboratoriyasi faoliyat yuritgan. 1971-yildan 1977-yilgacha bo'lgan davrda esa 140 tadan ortiq namunali dorixona qurilgan va 130 ta dorixona yangi qulay va shinam binolarga ko'chirib o'tkazilgan.

1978-yil iyunda Toshkent shahrida Markaziy shahar o'quv-ishlab chiqarish dorixonasi ochildi. 1981-yilning boshiga kelib, Sog'liqni saqlash vazirligining Bosh dorixona boshqarmasi tizimida 1500 ta dorixona (ulardan 1016 ta dorixona qishloq joylarida), 3434 ta dorixona punkti (ulardan 217 tasi – birinchi guruhli), 25 ta dorixona do'koni, 14 ta dorixona ombori va 14 ta nazorat-tahlil laboratoriyasi mavjud edi.

1987-yilda Respublikada 1995 ta xo'jalik hisobidagi dorixona, shu jumladan 1333 ta dorixona qishloq joylarida va 6477 ta dorixona filiali faoliyat yuritgan. Davolash-profilaktika muassasalarida 445 ta shifoxona ichida joylashgan dorixonalar mavjud bo'lgan.

1988-yilda O'zbekiston Respublikasi Bosh dorixona boshqarmasi Respublika "Farmatsevtika" ishlab chiqarish birlashmasi sifatida qayta tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi aholisini dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining dorixona muassasalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida"gi 132-son qaroriga asosan Sog'liqni saqlash vazirligining «Farmatsiya» Respublika ishlab chiqarish birlashmasi (keyingi o'rinlarda-RICHB) «Dori-darmon» davlat-aktsionerlik uyushmasiga o'zgartirildi [3].

Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-son qarori bilan «Farmatsiya» RICHB «Dori-darmon» davlat-aktsionerlik uyushmasiga o'zgartirilishi munosabati bilan uyushmaning asosiy vazifalari etib aholini dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirishni, dorixona muassasalarining farmatsevtika faoliyatini muvofiqlashtirishni va nazorat qilishni ta'minlash, dori-darmonlarni qabul qilib olish, saqlash, hisobga olish hamda sotish masalalari bo'yicha uslubiy, yo'riqnoma va normativ hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, ularning sifatini nazorat qilish etib belgilandi.



«Dori-darmon» davlat-aksionerlik uyushmasi tarkibiga maxsus nazorat-analitik xizmati, shuningdek «Farmatsiya» RICHBning tegishli dorixona muassasalari negizida tashkil etilgan dorixona muassasalari kiritildi.

Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-son qarori asosida ekspertizadan o'tmagan dori-darmonlarni tayyorlashga, sotib olishga, saqlashga va aholiga sotishga yo'l qo'ymaslik maqsadida uyushma tarkibida maxsus nazorat-analitik xizmati tashkil etildi. Shuningdek, "Farmatsiya" RIB tarkibida bo'lgan jami 175 ta dorixona muassasalari negizida, 35 ta xususiy, 112 ta jamoa va aksionerlik dorixonalari sifatida qayta tashkil etilib, 28 ta shifoxonalar ichidagi byudjet va xo'jalik hisobidagi dorixonalar xususiylashtirilmasdan, davolash-profilaktika muassasalarini dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan davlat tomonidan ta'minlanishi saqlanib qolindi.

**Mustaqillik davri (1994-2005-yillar).** Yurtimizda dori-darmonlarni va tibbiyot buyumlarini xarid qilish va sotish tizimida boshqaruvni yanada takomillashtirish, respublika aholisini va davolash-profilaktika muassasalarini dori-darmonlar bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 22-dekabrda PF-3366-sonli "Xo'jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 20-maydagi "Dori-darmon" davlat-aksionerlik uyushmasini «Dori-darmon» aksionerlik kompaniyasiga aylantirish to'g'risida"gi 131-son qarori asosida "Dori-darmon" davlat-aksionerlik uyushmasi 36,1% davlat ulushiga ega "Dori-darmon" aksionerlik kompaniyasi etib qayta tashkil etildi[4,5]. Natijada, mazkur qaror bilan

kompaniyaning tarkibiga 8 ta aksionerlik jamiyatlari hamda 8 ta korxonalar va tashkilotlar birlashtirilib, ular tarkibidagi jami 15 ta ulgurji omborxonalar, 197 ta dorixonalar va 366 ta filiallar kiritildi.

### **Modernizatsiya davri (2005-2020 yillar).**

Bugungi kunda, "Dori-Darmon" AK O'zbekiston bozoriga farmasevtika mahsulotlarini yetkazib beruvchi yetakchi kompaniyaga aylanib bormoqda. Kompaniyaning tarkibida 8 ta aksionerlik jamiyatlari va 10 ta ma'suliyati cheklangan ja'miyatlar, shu jumladan 17 ta omborlar, 233 dorixona va 1994 dorixona muassasalari filiallari, 15 ta tahliliy-analitik laboratoriyalari mavjud. Dorixona filiallarning 70 foizi qishloq vrachlik punktlarida, respublikaning tog'li va uzoq tumanlarida joylashgan. Bugungi kunda AK "Dori-Darmon" va uning hududiy bo'linmalari tomonidan 2222 ta ijtimoiy dorixona tashkil etilgan bo'lib, ularning aksariyati chekka hududlardagi qishloq oilaviy poliklinikalari va qishloq vrachlik punktlarida joylashgan. Toshkent shahridagi oilaviy poliklinika va ko'p tarmoqli poliklinikalarda joylashgan 45 ta ijtimoiy dorixona ham mavjud. "Dori-Darmon" AK bir necha yillar davomida Sog'liqni saqlash vazirligining tibbiy muassasalarini maqsadli byudjet mablag'lari hisobiga ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarni davolash uchun tibbiy dori-darmon vositalari bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-oktabrdagi 849-sonli qaroriga muvofiq «Dori-Darmon» AKga davlat tomonidan 150 mlrd so'm miqdorida byudjet ssudasi ajratildi hamda 2017-yil yakunlari bo'yicha olingan



daromadni, istisno tariqasida, dividendlar hisoblamasdan kompaniyaning moliyaviy barqarorligini oshirish va keyinchalik «Dori-darmon» AK ustav kapitalini kapitallashtirish uchun yo'naltirishga ruxsat berildi[6].

2020-yilda "Dori-Darmon" AK moliyaviy ko'rsatkichlari sezilarli darajada ko'tarilib, 30.7 mlrd sum sof foyda oldi. Bu ko'satkich o'tgan 2 yilga nisbatan ancha farq qilib, o'tgan yillar davomida kompaniya asosan zarariga ishlab kelayotgan edi.

2020-yilning 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Oliy ta'lim vazirligining qo'shma qarori qabul qilinib, barcha oliy ta'lim muassasalarida koronavirus kasalligiga qarshi kurashish uchun dori vositalari "Dori-darmon" dorixonalar tarmog'idan xarid qilinishi belgilandi.

AK "Dori-Darmon" dorixona tarmoqlari imtiyozli bemorlarga dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlarini bepul tarqatadi. 13 ta kasallik ro'yxati va ambulatoriya sharoitidagi bepul tibbiy yordam ko'rsatuvchi shaxslar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 22-iyuldagi 204-sonli qarori bilan tasdiqlangan[7]. Toshkent shahri aholisi, jumladan, imtiyozli bemorlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash maqsadida Toshkent shahridagi 100 ta dorixonada dori-darmon va tibbiy mahsulotlarning mavjudligi to'g'risida batafsil ma'lumot beruvchi "Dori-Darmon" AK tarmog'ining "1002" ma'lumot xizmati tashkil etilgan.

**O'zbekiston farmasevtika sanoati ("O'ZFARMSANOAT") davlat-aksionerlik konserni.** Dori-darmonlar va biologik moddalar ishlab chiqaruvchi birlashmalar, korxonalar, tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish, farmasevtika sanoatini

yanada rivojlantirish va respublika aholisining dorivor moddalarga bo'lgan ehtiyojini yaxshiroq qondirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 02-iyundagi PF-609-sonli "O'zbekiston farmasevtika sanoati («O'zfarmosanoat») davlat-aksionerlik konsernini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-iyundagi 290-sonli "O'zbekiston farmasevtika sanoati («O'zfarmosanoat») davlat-aksionerlik konsernini tashkil qilish va uning faoliyati masalalari to'g'risida"gi qaroriga asosan O'zbekiston farmasevtika sanoati («O'zfarmosanoat») davlat-aksionerlik konserni tashkil etildi[8,9]. Konsern o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob berishi belgilandi.

Konsern tarkibiga 26 ta ishlab chiqarish korxonalarini (18 ta qo'shma, 2 ta xorijiy, 6 ta xususiy) va 3 ta ilmiy tadqiqot institutlari (O'zbek kimyo-farmasevtika ITI, Toshkent vaksinalar va zardoblar ITI, "SHarq tabobati" ITI) kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 11-noyabrdagi O'zbekiston farmasevtika sanoati («O'zfarmosanoat») davlat-aksionerlik konsernining ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi 542-son qarori bilan «O'zfarmosanoat» DAK ustavi qabul qilindi[10].

Keyinchalik mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 17-iyundagi 300-son «Hukumatning «O'zfarmosanoat» konserni bo'yicha ba'zi qarorlarini o'zgartirish va ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan[11].



## **Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi.**

Farmasevtika faoliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, aholi va sog'liqni saqlash muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiyot texnikalari bilan ta'minlanganlik darajasini yanada oshirish, ularning ishlab chiqarilishi, olib kirilishi va sotilishini muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-noyabridagi "Farmasevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" 5229-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi (keyingi o'rindarda – Agentlik) tashkil etildi[12]. Ushbu Agentlik zimmasiga farmasevtika tarmog'ini barqaror rivojlantirish strategiyasini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklikni joriy etish yo'li bilan ishlab chiqish va amalga oshirish, farmasevtika korxonalari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, aholi va davlat sog'liqni saqlash muassasalarini dori vositalari, tibbiyot buyumlari hamda tibbiyot texnikalari bilan ta'minlash dasturlarini amalga oshirish bo'yicha vazifalar yuklatildi. Sog'liqni saqlash vazirligining dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiyot texnikalari ekspertizasi va standartizatsiyasi davlat markazi, «O'zfarmosanoat» DAKning O'zbek kimyo-farmasevtika ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti, "SHarq tabobati" ilmiy-tadqiqot instituti Agentlikning tasarrufiga o'tkazildi. «O'zfarmosanoat» DAKning mulki agentlik tarkibiga o'tkazilishi munosabati bilan konsernning faoliyati tugatildi.

SHuningdek, Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli bo'lgan «O'zmedeksport» respublika tashqi iqtisodiy davlat korxonasi ham «O'zmedimpeks» davlat unitar korxonasi sifatida qayta nomlandi va agentlik tarkibiga kiritildi.

Natijada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 993-son qarori bilan agentlikning quyidagi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi[13].

So'nggi yillarda mamlakatimiz aholisini yetarlicha sifatli va arzon dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiy texnikalar (keyingi o'rinlarda – farmasevtik mahsulotlar) bilan ta'minlash bo'yicha davlat boshqaruvi miqyosida farmasevtika faoliyatini tizimli takomillashtirishga doir bir qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, mahalliy farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shunga qaramasdan, yurtimiz bo'ylab farmasevtik mahsulotlarni ishlab chiqarish quvvatlari yetarli darajada emasligi, ularning tor assortimentda ekanligi ichki bozorning dori vositalariga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondira olmayapti. Bundan tashqari mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan farmasevtik mahsulotlar xalqaro standart talablariga to'liq javob bera olmayotganligi tashqi bozorda ularning raqobatbardoshlik imkoniyatlarini va tarmoqning eksport salohiyatini cheklamoqda. Natijada, import tovarlariga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Agentlik



faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-sonli Farmoni bilan «O'zmedimpeks» DUK Agentlik tarkibidan yana O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasiga o'tkazildi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash va ularning ulgurji savdosi ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek farmasevtika faoliyatini lisenziyalash bo'yicha funksiyalari Agentlik vakolatiga o'tkazildi[14].

SHuningdek, mamlakatimizda innovasion va yuqori sifatli farmasevtik mahsulotlarni ishlab chiqarish tarmog'ini jadal rivojlantirish, aholining ushbu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, xorijiy investisiyalarni jalb qilish, farmasevtika sohasi mutaxassislarini xalqaro ta'lim standartlari asosida qayta tayyorlash, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish hajmlari va eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4574-sonli «Tashkent Pharma Park» innovasion ilmiy-ishlab chiqarish farmasevtika klasterini tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq «Tashkent Pharma Park» innovasion ilmiy-ishlab chiqarish farmasevtika klasteri Direksiyasi tashkil etildi va uning faoliyatini muvofiqlashtirish ham Agentlik zimmasiga yuklatildi[15].

Yuqorida belgilangan qonunchilik hujjatlariga asosan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-fevraldagi 78-son qaroriga asosan Hukumatning 2017-yil 18-dekabrda 993-son qaroriga o'zgartirish kiritish orqali bugungi kunda

Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining quyidagi yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi (3-rasm) [16].

**“O'zmedimpeks” davlat unitar korxonasi.** “O'zmedimpeks” davlat unitar korxonasi “O'zmedeksport” Respublika tashqi iqtisodiy davlat korxonasining huquqiy vorisi hisoblanib, bugungi kunda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlari, davlat sog'liqni saqlash muassasalari va tashkilotlari uchun tibbiyot texnikalari va tibbiyot avtrotransportlarining yagona yetkazib beruvchisi hamda ularni saqlash, qayta ishlash va yetkazib berish bo'yicha agenti hisoblanadi.

Korxonaga 1995-yil 14-iyulda xo'jalik hisobidagi “O'zmedeksport” respublika tashqi savda birlashmasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 688-son raqami bilan ro'yxatdan o'tgan bo'lib, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1997-yil 24-noyabrda 561-son buyrug'i bilan “O'zmedeksport” Respublika tashqi iqtisodiy davlat korxonasi etib qayta tashkil etilgan va vazirlikning tarkibiy tuzilmasiga o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-noyabrda 5229-son Farmoniga muvofiq “Farmasevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” 5229-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzurida Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi tashkil etilishi munosabati bilan «O'zmedeksport» respublika tashqi iqtisodiy davlat korxonasi «O'zmedimpeks» davlat unitar



korxonasi sifatida qayta nomlandi va Sog'liqni saqlash vazirligi tashkiliy tuzilmasidan agentlik tarkibiga o'tkazildi[17]. Natijada mazkur korxonaga Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining "O'zmedimpeks" davlat unitar korxonasi deb yuritila boshlandi.

Korxonaning bir tashkilotdan ikkinchisiga o'tkazilishi aholini sifatli va hamyonbop ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash, ichki bozorning farmasevtika mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida amalga oshirilgan bo'lsada, amalda ishlab chiqarish quvvatlari yetarli darajada emasligi hamda mahalliy farmasevtika mahsulotlarining tor assortimenti ichki bozor ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini bermadi. Mahalliy korxonalarining farmasevtik mahsulotlari xalqaro standart talablariga javob bera olmayotganligi tashqi bozorda ularning o'rni deyarligi yo'qligi va ichki bozor ehtiyojlarini qondirishning katta ulushi import tovarlari hisobiga amalga oshirilishiga sabab bo'ldi. SHu sababli, farmasevtika tarmog'ini tubdan rivojlantirish, xorijiy investisiyalarni jalb qilish, innovasion farmasevtika mahsulotlarini yaratishni rag'batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish hajmlari va eksport salohiyatini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-sonli Farmoni bilan "O'zmedimpeks" DUK Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tarkibidan yana O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tashkiliy tuzilmasiga o'tkazildi.

Yuqorida qayd etganimizdek "O'zmedimpeks" DUKning asosiy vazifalari

sifatida sog'liqni saqlash tizimini ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlari, davlat sog'liqni saqlash muassasalari va tashkilotlari uchun tibbiyot texnikalari va tibbiyot avtrotransportlarining yagona yetkazib beruvchisi sifatida ularning markazlashtirilgan xaridlarini amalga oshirish, sotish va oldi-sotdisida vositachilik qilish hisoblanadi. Bunda Sog'liqni saqlash vazirligi (Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar boshqarmalari, barcha tuman tibbiyot birlashmalari) tomonidan har yili aholi ehtiyoji uchun ishlatiladigan ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlari ro'yxati shakllantiriladi. Mazkur ro'yxat asosida korxonaga tomonidan dori vositalari va tibbiyot buyumlari, tibbiyot texnikasi va tibbiyot avtotransportlarini xarid qilish bo'yicha tender savdolarini o'tkazadi. Natijada, xarid qilingan dori vositalari va farmasevtika buyumlari sog'liqni saqlash tizimining davolash profilaktika muassalariga, shu jumladan chekka qishloq joylariga yetkazib berilishi ta'minlanadi.

Biroq "O'zmedimpeks" DUKning mazkur funksiyalari "Dori-darmon" AKning davlat rezervining dori-darmonlar va tibbiyot buyumlariga ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash funksiyalari bilan uyg'unlikda ekanligini kuzatish mumkin bo'ladi. Har ikkala tashkilot ham Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalarini davolash profilaktika muassalariga yetkazib berish majburiyatini oladi. Bu esa bir xil funksiyani tashkiliy tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladigan ikki xil tashkilot tomonidan bajarilishini anglatadi.



Muallif tomonidan olib borilgan o'rganishlar natijasida aholini sifatli dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashda davlatning tegishli davlat organlari, tashkilotlari va korxonalarining roli tahlil qilindi va quyidagi xulosalarga kelindi:

**1. "Dori-Darmon" AK.** O'zbekiston Bosh dorixonasi boshqarmasining huquqiy vorisi hisoblanib, o'zining dastlabki faoliyatini 1925-yildan boshlagan. Mustaqillikgacha mazkur boshqarma O'zbekiston SSR aholisini dori vositalari va tibbiy buyumlari bilan ta'minlagan yagona davlat bosh dorixonasi hisoblangan.

*Islohotlar:* 1988-yilda O'zbekiston Respublikasi Bosh dorixonasi boshqarmasi Respublika "Farmasevtika" ishlab chiqarish birlashmasi sifatida qayta tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-martdagi 132-son qaroriga asosan mazkur birlashma Sog'liqni saqlash vazirligining "Dori-darmon" davlat-aksionerlik uyushmasiga o'zgartirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 22-dekabrda PF-3366-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 20-maydagi 131-son qarori asosida "Dori-darmon" davlat-aksionerlik uyushmasi 36,1% davlat ulushiga ega "Dori-darmon" aksionerlik kompaniyasi etib qayta tashkil etildi.

*Asosiy vazifalari:* O'zbekiston Respublikasi aholisini sifatli dori-darmonlar va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash hamda kompaniya tarkibiga kiradigan dorixonasi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish, mavjud farmasevtika mahsulotlari resurslari to'g'risidagi yagona respublika axborotlar tizimini yaratishdir.

*Xulosa.* Kompaniya faoliyati to'laqonli davlat boshqaruvi tizimidan qisman

(36,1% davlat ulushiga ega) xo'jalik yurituvchi boshqaruvi tizimiga o'tkazildi. SHunday bo'lsada, Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalarini davlat davolash profilaktika muassasalariga yetkazib berish majburiyati saqlanib qolindi.

**2. O'zbekiston farmasevtika sanoati ("O'ZFARMSANOAT") davlat-aksionerlik konserni.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 2-iyundagi PF-609-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 17-iyundagi 290-sonli qaroriga asosan O'zbekiston farmasevtika sanoati («O'zfarmasanoat») davlat-aksionerlik konserni tashkil etildi.

*Islohotlar:* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-noyabrda 5229-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish Agentligi tashkil etilishi munosabati bilan mazkur konsern tugatilgan.

*Asosiy vazifalari:* дори-дармонларни яратиш ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш, аҳолининг, даволаш-профилактика муассасаларининг доривор воситаларга, биопрепаратларга, тиббий ва санитария-гигиена мақсадларидаги бошқа маҳсулотларга бўлган талабини қондириш чора-тадбирларини амалга ошириш.

*Xulosa.* Konsern tomonidan ishlab chiqarish quvvatlari yetarli darajada emasligi, mahalliy farmasevtika mahsulotlarining tor assortimenti ichki bozor ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini bermadi. SHuningdek, mahalliy korxonalarining farmasevtik mahsulotlari xalqaro standart talablariga javob bera



olmayotganligi tashqi bozorda ularning o'rni deyarligi yo'qligi va ichki bozor ehtiyojlarini qondirishning katta ulushi import tovarlari hisobiga amalga oshirilishi konsern faoliyatini tugatilishiga sabab bo'ldi.

**3. Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-noyabridagi 5229-son Farmoniga muvofiq tashkil etildi.

*Islohotlar:* Mazkur Farmon bilan Sog'liqni saqlash vazirligining dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiyot texnikalari ekspertizasi va standartizatsiyasi davlat markazi, «O'zfarm sanoat» DAKning barcha ilmiy-tadqiqot institutlari hamda «O'zmedimpeks» davlat unitar korxonasi agentlikning tasarrufiga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-sonli Farmoni bilan «O'zmedimpeks» DUK Agentlik tarkibidan yana O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasiga o'tkazildi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish, tayyorlash va ularning ulgurji savdosi ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek farmasevtika faoliyatini lisenziyalash bo'yicha funksiyalari agentlik vakolatiga o'tkazildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4574-sonli qaroriga muvofiq «Tashkent Pharma Park» innovasion ilmiy-ishlab chiqarish farmasevtika klasteri Direksiyasi tashkil etildi va uning faoliyatini muvofiqlashtirish ham Agentlik zimmasiga yuklatildi.

*Asosiy vazifalari:* farmasevtika tarmog'ini barqaror rivojlantirish strategiyasini, shu jumladan davlat-xususiy

shiriklikni joriy etish yo'li bilan ishlab chiqish va amalga oshirish, farmasevtika korxonalari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, aholi va davlat sog'liqni saqlash muassasalarini dori vositalari, tibbiyot buyumlari hamda tibbiyot texnikalari bilan ta'minlash dasturlarini amalga oshirish.

*Xulosa.* Aholi va davlat sog'liqni saqlash muassasalarini sifatli hamda arzon dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashda Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirishga oid strategiyalarni ishlab chiqadi. Bunda farmasevtika korxonalari va tashkilotlari tomonidan mahalliy dori vositalarini ishlab chiqilishi va narx navoning asossiz o'sib ketishini oldini olish bo'yicha monitoring ishlarini olib boradi.

**4. "O'zmedimpeks" davlat unitar korxonasi.** 1995-yil 14-iyulda xo'jalik hisobidagi "O'zmedeksport" respublika tashqi savda birlashmasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 688-son raqami bilan ro'yxatdan o'tgan bo'lib, keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 1997-yil 24-noyabrdagi 561-son buyrug'i bilan "O'zmedeksport" Respublika tashqi iqtisodiy davlat korxonasi etib qayta tashkil etilgan va vazirlikning tarkibiy tuzilmasiga o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 noyabridagi 5229-son Farmoniga muvofiq «O'zmedeksport» respublika tashqi iqtisodiy davlat korxonasi «O'zmedimpeks» davlat unitar korxonasi sifatida qayta nomlandi va Sog'liqni saqlash vazirligi tashkiliy tuzilmasidan Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi tarkibiga o'tkazildi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-apreldagi PF-5707-sonli



Farmoni bilan “O‘zmedimpeks” DUK yana O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tashkiliy tuzilmasiga o‘tkazildi.

*Asosiy vazifalari:* соғлиқни сақлаш тизимини ижтимоий аҳамиятга эга дори воситалари ва тиббиёт буюмлари, давлат соғлиқни сақлаш муассасалари ва ташкилотлари учун тиббиёт техникалари ва тиббиёт автотранспортларининг ягона етказиб берувчиси сифатида уларнинг марказлаштирилган харидларини амалга ошириш, сотиш ва олди-сотдисидида воситачилик қилиш.

*Xulosa.* Korxonalar faoliyati xo‘jalik yurituvchi hisobidan davlat boshqaruvi tizimiga o‘tkazildi. Natijada Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan har yili belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlari, tibbiyot texnikalari va tibbiyot avtotransportlarini davlat sog‘liqni saqlash muassasalari va tashkilotlari uchun yetkazib beruvchisi hisoblandi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xulosalarni umumlashtirgan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. “Dori-darmon” AK faoliyatida davlat ulushini tugatib, to‘laqonli xo‘jalik yurituvchi hisobiga o‘tkazish. Natijada kompaniyaning davlat davolash profilaktika muassasalarini tegishli dori vositalari bilan ta‘minlash vazifasi bekor qilinadi hamda aholini kerakli dori vositalari bilan ta‘minlashning erkin bozor iqtisodiyoti mexanizmi rivojlanadi.
2. Farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligini Sog‘liqni saqlash vazirligi tasarrufidan chiqarish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Farmasevtika tarmog‘ini rivojlantirishning ilmiy-amaliy agentligi sifatida qayta tashkil etish. Bu bilan

agentlikning asosiy vazifalari etib quyidagilarni belgilash:

- mamlakatimiz hududida mahalliy dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqaruvchi barcha farmasevtik korxonalar, shuningdek barcha turdagi dorixonalar faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirib borish;

- ichki bozor ehtiyojlarini to‘liq qondirish maqsadida mahalliy farmasevtika mahsulotlarining keng assortimenti yaratish imkoniyatlarini ilmiy-amaliy o‘rganib chiqish va tegishli takliflar kiritish;

-mahalliy korxonalarining farmasevtik mahsulotlari xalqaro standart talablariga javob bera olmayotganligi sabablarini ilmiy tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish;

-mahalliy farmasevtika faoliyatini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish, xorijlik mutaxassislarini jalb qilish va import dori vositalarini mahalliyashtirish choratadbirlarini ishlab chiqish;

-ishlab chiqarish quvvatlari yetarli bo‘lmagan farmasevtik korxonalariga ularning faoliyatini yanada rivojlantirish uchun davlat tomonidan kredit pul mablag‘larini ajratish bo‘yicha amaliy yordamlar ko‘rsatish;

-mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan farmasevtik mahsulotlarga qo‘yilayotgan, shuningdek chakana va ulgurji dorixonalarda sotilayotgan dori vositalariga qat’iy belgilangan narxlarni joriy etish va nazorat qilish;

-importga oid dori vositalari ro‘yxatini shakllantirib borish va ularni xarid qilinishida yagona tashkilot sifatida ishtirok etish va hokazolar.

3. “O‘zmedimpeks” DUKning Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan har yili aholi



ehtiyoji uchun ishlatiladigan ijtimoiy ahamiyatga ega dori vositalari va tibbiyot buyumlarini ro'yxati bo'yicha amalga oshiriladigan xaridlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirishning ilmiy-amaliy agentligi

tomonidan amalga oshirish. Shu yo'l bilan dori vositalarini xarid qilishda asossiz tenderlarda ishtirok etilishi oldi olinadi va davlat byudjeti mablag'larini maqsadli sarflanishi, korrupsiyaning oldi olinishiga olib kelinadi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 fevraldagi 78-son "Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterining faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 noyabridagi PF-5229-son "Farmasevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. Khudoyberganova, M. (2021). THE ROLE OF PUBLIC ADMINISTRATION IN THE DEVELOPMENT OF PHARMACEUTICAL SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES, 1 (1), 147-152.
4. Khudoyberganova, M. (2021). THE ROLE OF THE JOINT STOCK COMPANY" DORI-DARMON" IN PROVIDING THE POPULATION WITH MEDICINES AND MEDICAL SUPPLIES IN THE PUBLIC ADMINISTRATION, 1 (1), 187-193.
5. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 04 yanvardagi O'RQ-399-sonli Qonuni. [Elektron manba] // URL: <https://lex.uz/docs/2856464> (мурожаат қилинган вақт:01.03.2021). (Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-399 of January 04, 2016).
6. Нормуратов, А. (2022). МУОМАЛА ЛАЁҚАТИ ТУШУНЧАСИ, УНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШ АСОСЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 1325-1333.
7. Нормуратов, А. (2022). МУОМАЛА ЛАЁҚАТИ ЁШИНИ БЕЛГИЛАБ БЕРУВЧИ ДАВЛАТ ОРГАНЛАРИНИНГ ВАКОЛАТЛАРИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 689-698.
8. Li, A. A. (2018). The issues of legal support of state innovation policy in the Republic of Uzbekistan. Review of law sciences, 3(1), 5.
9. Khumoyun, S., Asal, J., & Wang, C. (2022). LIMITATIONS CHALLENGING BETTER STATE INVOLVEMENT IN THE DSB. Involta Scientific Journal, 1(4), 70-82.
10. Ражабова, К. (2022). БЛОГЕРЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЗАРУРАТИ. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 241-245.
11. Ражабова, Карима Қахрамоновна (2022). САЙЛОВ КОМИССИЯЛАРИНИНГ ХАТТИ-ҲАРАКАТЛАРИ (ҚАРОРЛАРИ) ЮЗАСИДАН НИЗОЛАШИШ ТЎҒРИСИДАГИ ИШЛАРНИ СУДДА КЎРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАР. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 23), 556-563. doi: 10.24412/2181-1784-2022-23-556-563
12. Saidazimov, Y. (2022). ADMINISTRATIVE ACT IN THE LEGISLATION OF FOREIGN COUNTRIES. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 639-643.



13. Yusuf, S. (2022). The historical experience of organizing local self-government body as a public administration organ in germany. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(7), 430-436.
14. Saidazimov, Y. (2021, November). THE OBLIGATION TO PROVE IN ADMINISTRATIVE COURTS IS UNDER THE RESPONSIBILITY OF THE ADMINISTRATIVE BODY AND THE OFFICIAL WHO ACCEPTED IT. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 92-94).
15. Saidazimov, Y. (2020). FEATURES OF THE EXERCISE OF DISCRETIONARY POWERS BY ADMINISTRATIVE BODIES. Scientific works of students and postgraduates. In Collection of scientific works on the results of the International Remote Scientific and practical conference.- Tashkent: TSUL (p. 562).
16. Абулхайров, Р. (2022). ПОРТЛАШДАН КЕЙИН ҲОДИСА ЖОЙИНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШ ТАРТИБИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 817-823.
17. Абулхайров, Р. (2022). ПОРТЛАШДАН КЕЙИН ҲОДИСА ЖОЙИНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИНГ КРИМИНАЛИСТИК АҲАМИЯТИ: ПОРТЛАШ, ШУНИНГДЕК ПОРТЛОВЧИ МОДДА ВА ПОРТЛОВЧИ ҚУРИЛМАЛАР ТУШУНЧАСИ, УЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 203-219.
18. Абулхайров, Р. (2022). ПОРТЛАШДАН КЕЙИН ҲОДИСА ЖОЙИНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШНИНГ УМУМИЙ ЖИҲАТЛАРИ: КЎЗДАН КЕЧИРИШНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА АМАЛГА ОШИРИШ ТАРТИБИ. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 250-257.
19. Абулхайров, Р. (2022). ПОРТЛАШДАН КЕЙИН ҲОДИСА ЖОЙИНИ КЎЗДАН КЕЧИРИШДА ДАСТЛАБКИ ТАЙЁРГАРЛИК БОСҚИЧИНИНГ КРИМИНАЛИСТИК ЖИҲАТЛАРИ: КЎЗДАН КЕЧИРИШДА ИШТИРОК ЭТУВЧИ ТЕЗКОР ГУРУҲНИНГ ТАРКИБИ ВА УЛАРНИНГ ВАЗИФАЛАРИ. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, 2(12), 188-194.